Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81'25
FILOLOGIYA

TARJIMADA AFORIZMLARNI IFODALASH MUAMMOLARI ("QIROL LIR" TRAGEDIYASI MISOLIDA)

Shodiya Rustamjon qizi Maxamadjonova*
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ maxamadjonovashodiya@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda Uilyam Shekspirning "Qirol Lir" tragediyasidagi aforizmlarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi jarayonidagi leksik-semantik, stilistik va lingvokulturologik muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda G'afur G'ulom va Jamol Kamol tarjimalari chog'ishtirilib, aforizmlarning asl ma'nosi, lakonizmi va obrazliligini saqlashda qo'llanilgan tarjima usullari (kalkalash, ekvivalentlik, transpozitsiya, kontekstual moslik) o'rganiladi. Aforizm va maqollarning chegaralanishi hamda ularning falsafiy va emotsional bo'yog'ini saqlash muammolari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

aforizm, Qirol Lir, tarjimashunoslik, lakonizm, lingvokulturoLogiya, kontekstual ekvivalentlik, G'afur G'ulom, Jamol Kamol, Uilyam Shekspir, badiiy tarjima.

DOI: 10.5281/zenodo.21743505

KIRISH

Jahonnning eng buyuk dramaturglaridan biri Uilyam Shekspir ijodining cho'qqisi hisoblangan "Qirol Lir" tragediyasi nafaqat insoniy fojealarning teran tahlili, balki boy aforistik va hikmatli iboralarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Aforizmlar — muayyan falsafiy va hayotiy haqiqatni g'oyat ixcham, tugal, mantiqiy hamda teran badiiy shaklda ifodalaydigan xos nutq birliklaridir. [1, 45-b.] Asardagi har bir qahramon, xususan Qirol Lir, Masxaraboz, Kent, Edgar hamda Yovuz opa-singillar nutqidagi aforizmlar syujet rivoji, qahramonlar ruhiyatidagi o'zgarishlar va umuminsoniy fojialarni ochib berishda yetakchi o'rin tutadi. [7, 12-p.] Biroq, badiiy tarjimada ushbu aforizmlarni bir tildan ikkinchi tilga ko'chirish tarjimondan nafaqat til bilishni, balki ikki xalqning madaniy va falsafiy tafakkurini chuqur anglashni ham talab etadi.

O'zbek tarjimashunosligida "Qirol Lir" tragediyasi ikki buyuk ijodkor — G'afur G'ulom va Jamol Kamol tomonidan o'zbek tiliga mahorat bilan o'girilgan. Ushbu ikki tarjima o'rtasidagi aforizm ifodasining qiyosiy-stilistik tahlili tarjima nazariyasida aforizmlarni yetkazish muammolarini ochib berish uchun g'oyat muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Aforizm — ma'nosi jihatidan mukammal, shaklan g'oyat ixcham, mantiqiy tugallikka ega bo'lgan va xalq iboralari hamda maqollaridan mualliflik xarakteriga egaligi bilan farqlanadigan sintaktik tuzilmadir [2, 112-b.]. Maqollar xalq og'zaki ijodining mahsuli hisoblansa, aforizmlar muayyan muallifning individual-uslubiy fikrlash mahsulidir.

Tarjimashunos olim V.N. Komissarov ta'kidlaganidek, aforizmlarni tarjima qilishda uchta asosiy talabga rioya qilish lozim:

1. Aforizmning lakonizmini (ixchamligini) saqlash;
2. Undagi obrazlilik va metaforik teranlikni uzatish;
3. Muallifning individual uslubini hamda asarning umumiy ritmik-poetik qurilishini buzmaslik [3, 88-b.].

O‘zbek tilida aforizmlarni ifodalashda tarjimonlar milliylashtirish va asliga sodiqlik tamoyillari o‘rtasida murakkab tanlovga duch kelishadi [8, 154-b.] Quyida esa bu tamoyillar o‘rtasidagi tafovutni ko‘rishimiz mumkin.

Tragediyaning eng markaziy va falsafiy poydevori hisoblangan aforizmlardan biri 1-parda 1-sahnada Lir tomonidan uning kenja qizi Kordeliyaga qarata aytilgan iboradir:

Asl matn: *”Nothing will come of nothing: speak again.”* [7, 168-p.]

G‘afur G‘ulom tarjimasi: *”Nolga nolni qo‘shsang ham nol chiqar; gapir yana.”* [4, 15-b.]

Jamol Kamol tarjimasi: *”Puchdan hech narsa chiqmas: so‘zla qaytadan.”* [5, 18-b.]

Chog‘ishtirma tahlil shuni ko‘rsatadiki, G‘afur G‘ulom ifodani o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli qilish maqsadida *”nolga nolni qo‘shish”* tarzidagi matematik taqqoslash orqali bergan. Jamol Kamol esa *”Puchdan”* so‘zini qo‘llab, lakonizm va falsafiy teranlikni hamda Shekspir poetikasini aniqroq saqlab qolgan.

Yana bir diqqatga sazovor aforizm Lirning o‘z qizlarining nosoposligidan g‘azabga kelganida aytgan nutqida uchraydi:

Asl matn: *”How sharper than a serpent's tooth it is / To have a thankless child!”* [7, 214-p.]

G‘afur G‘ulom tarjimasi: *”Yovuz ilon zaharidan ham achchiqroqdir / Bo‘lsa gar oqpadar farzand...”* [4, 42-b.]

Jamol Kamol tarjimasi: *”Ilonning tishidan ham o‘tkirroq, naqd bilsangiz, / Nosopos, nonko‘r farzandning sitamidir, elingiz.”* [5, 54-b.]

Ushbu o‘rinda G‘afur G‘ulom o‘zbek xalqi mentalitetiga mos va milliy qadriyatlardan kelib chiqqan *”oqpadar”* tushunchasini kiritgan va buni milliylashtirish deb atashimiz mumkin. Jamol Kamol esa *”sharper than a serpent's tooth”* iborasini *”Ilonning tishidan ham o‘tkirroq”* deb asliga mos metaforik aniqlikda va poetik vaznga rioya qilgan holda tarjima qilgan.

Keyingi misolga ham e’tibor qaratsak.

Asl matn: *”When we are born, we cry that we are come / To this great stage of fools.”* [7, 342-p.]

G‘afur G‘ulom: *”Tug‘ilganda yig‘laymiz, chunki kelganmiz / Ahmoqlar sahnasi bo‘lmish dunyoga.”* [4, 118-b.]

Jamol Kamol: *”Tug‘ilganda yig‘laymiz, kelganimizchun / Ahmoqlarning bu katta sahnasiga.”* [5, 142-b.]

Har ikki tarjimon ham bu o‘rinda aslidagi *”stage of fools”* (ahmoqlar sahnasi) va *”we cry”* (yig‘laymiz) birliklarini o‘ta aniq va mukammal yetkaza olganlar [6, 210-b.].

XULOSA

Aforizmlarni badiiy tarjimada ifodalash murakkab lingvo-poetik jarayon bo‘lib, u tarjimondan mantiqiy daxlsizlik, poetik vazn, stilistik joziba va lakonizmni muvozanatda ushlashni talab etadi.

G‘afur G‘ulom tarjimasida milliylashtirish (*domestikatsiya*) tamoyili ustuvorlik qiladi. Tarjimon o‘zbek kitobxonining badiiy idrokini hisobga olgan holda milliy iboralardan (masalan, *”oqpadar”*) foydalangan.

Jamol Kamol tarjimasida esa Shekspir poetik uslubini va sintaktik qurilishini maksimal saqlash (*forenizatsiya*)ga intilish ko‘rinadi.

”Qirol Lir” tragediyasi misolida tahlil qilingan aforizmlar tarjimasi ko‘rsatdiki, aforizm ma'nosi va emotsional ta'sirni to‘liq saqlab qolish uchun kontekstual ekvivalentlik va leksik transpozitsiya usullarini oqilona uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir. [1, 210-b.; 6, 235-b.].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 232 b.
2. Alexeyeva I.S. Vvedeniye v perevodovedeniye. – Moskva: Akademiya, 2004. – 352 s.
3. Komissarov V.N. Sovremennoye perevodovedeniye. – Moskva: ETS, 2002. – 424 s.
4. Shekspir U. Qirol Lir. Tragediya (G‘afur G‘ulom tarjimasi). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. – 180 b.
5. Shekspir U. Tanlangan asarlar. 3-jild: Qirol Lir (Jamol Kamol tarjimasi). – Toshkent: Fan, 2008. – 260 b.

6. Qudratov T. Badiiy nutq va tarjima mahorati. – Toshkent: Fan, 2012. – 240 b.
7. Shakespeare W. King Lear (Edited by R.A. Foakes). – London: Arden Shakespeare, Third Series, 1997. – 464 p.
8. Musayev K. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 b.